



**XRONIK RINITNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA UNING  
SAMARADORLIGI**

**Kenjayev Yodgor Mamatqulovich**

**Shopo'latova Madina Ismatulayevna**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*Tibbiy fundamental fanlar kafedrasi katta o'qituvchilari*

*Tibbiyot fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Rinit — bu yuqori nafas yo'llarining yuqori tarqalgan yallig'lanish kasalligidir. Uning turlari ko'p bo'lib, oilaviy va infeksiyozlardan yoki allergiyadan kelib chiqadi. Jahon va O'zbekistonda rinitning yurak va nafas yo'llariga ta'siri katta, bu kasallik aholining turli qatlamlarida keng tarqalgan. Odatda, rinitning simptomlari ko'p hollarda eng kam seziladigan yoki ko'p vaqt davomida hech qanday og'riq tuymaydi, bu uning vaqt o'tishi bilan qo'shimcha muammolarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotda rinitning asosiy sabablaridan biri sifatida ekologik omillar, ishlab chiqarish sharoitlari, allergiya va viruslar ko'rsatilgan. Shu bilan birga, O'zbekistondagi yoshlar orasida bu kasallikning ko'payishi, ushbu yo'nalishda tibbiy yordam va monitoringni talab qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Rinit, allergik rinit, rinitning turlari, ekologik omillar, infeksiyalar, zamонавији muolajalar, profilaktika.

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОГО РИНИТА И ИХ  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ**

**Кенжав Ёдгор Маматкулович**

**Шопулатова Мадина Исматулаевна**

*Ташкентский экономико-сервисный университет*

*Кафедра медицинских фундаментальных наук, старшие преподаватели*

*Студент 2-го курса медицинского факультета*

**Аннотация:** Ринит — это одно из самых распространенных воспалительных заболеваний верхних дыхательных путей. Он бывает различных типов и может быть вызван как инфекциями, так и аллергическими реакциями или наследственностью. Ринит оказывает значительное влияние на сердце и дыхательные пути, как в мировом масштабе, так и в Узбекистане, и широко

распространен среди различных слоев населения. Симптомы ринита обычно слабо выражены или не сопровождаются болью длительное время, что может привести к дополнительным проблемам в будущем. В исследовании основными причинами ринита названы экологические факторы, условия производства, аллергии и вирусы. Также в Узбекистане наблюдается рост заболеваемости среди молодежи, что требует медицинской помощи и мониторинга в данной области.

**Ключевые слова:** Ринит, аллергический ринит, виды ринита, экологические факторы, инфекции, современные методы лечения, профилактика.

## MODERN METHODS OF TREATING CHRONIC RHINITIS AND THEIR EFFECTIVENESS

**Kenjayev Yodgor Mamatqulovich**

**Shopo'latova Madina Ismatulayevna**

*Termiz University of Economics and Service*

*Senior Lecturers of the Department of Medical Fundamental Sciences*

*2nd-year Student of the Medical Faculty*

**Abstract:** Rhinitis is one of the most common inflammatory diseases of the upper respiratory tract. It comes in various forms, arising from familial, infectious, or allergic causes. Rhinitis has a significant impact on the heart and respiratory system both worldwide and in Uzbekistan, and it is widely spread among different population groups. The symptoms of rhinitis are often mild or cause no pain for long periods, which can lead to additional problems over time.

The study identifies environmental factors, industrial conditions, allergies, and viruses as the primary causes of rhinitis. Furthermore, the rising incidence of this disease among young people in Uzbekistan calls for increased medical assistance and monitoring in this area.

**Keywords:** Rhinitis, allergic rhinitis, types of rhinitis, environmental factors, infections, modern treatments, prevention.

**Kirish:** Hozirgi kunda rinitning bir necha turlari mavjud:

- **Kataral:** Burun shilliq pardasining surunkali yallig'lanishi.
- **Virusli:** Kuz-qish davrida paydo bo'ladi.

**Allergik:** Mavsumiy yoki yil davomida bo'lishi mumkin.

• **Atrofik:** Quruqlik, po'st tashlash, hid bilishning yo'qolishi va burundan qon ketishi bilan kichadi.

• **Gipertrofik:** Burun bo'shlig'ida biriktiruvchi to'qima o'sib ketishi bilan ta'riflanadi.

• **Medikamentoz:** Burun preparatlarini uzoq vaqt ishlatish natijasida rivojlanadi. Surunkali rinit (rhinitis chronica) burun bo'shlig'i shilliq pardasining surunkali nospetsifik yallig'lanishi bo'lib, barcha LOR (otorinolaringologiya) kasallikkleri orasida to'rtinchi o'rinni egallaydi. Surunkali rinit rivojlanishiga asosiy sabablar infeksiyalar bo'lishi mumkin. Qaytalanadigan o'tkir rinit, burun yon qo'shni bo'shliq kasallikkleri, adenoidlar, burunning tug'ma nuqsonlari, burun to'sig'ining qiyshayishi, noqulay ekologik sharoitlar, chang, gaz, bug', o'simlik changi, burun bo'shlig'i shilliq pardasining doimiy qizarishi, alkogolizm, qon tomir, yurak, buyrak kasallikkleri, immunitetning susayishi, endokrin va markaziy nerv tizimi kasallikkleri surunkali rinitni rivojlanishiga yordam beradi.

### L.B. Danyak bo'yicha surunkali rinit tasnifi (1987):

1. **Surunkali kataral rinit**

2. **Gipertrofik rinit:** a) chegaralangan, b) tarqoq

3. **Vazomotor rinit:** a) allergik shakli, b) neyrovegitativ shakli

4. **Atrofik rinit:** a) oddiy shakli, b) sassiq tumov yoki ozena

**Surunkali kataral rinit** (rhinitis cataralis chronica) burun bo'shlig'i shilliq qavatining turg'un qizarishi, shishi va infiltratsiyasi, ba'zi maydonlarda epiteliy metaplastiyasi bilan kechadigan yallig'lanish jarayonini ifodalaydi. Belgilari: burun bo'shlig'idan ko'p miqdorda shilimshiq yoki yiringli-ajralma oqishi (rinoreya), vaqtiga-saqti bilan burun orqali nafas olishning qiyinlashishi, jismoniy faollik paytida burun orqali nafas olish yengillashishi, giposmiya yoki anosmiya kuzatilishi mumkin. Ba'zida yallig'lanish jarayoni qulqayining shilliq pardasiga tarqalishi (tubootit) mumkin.

**Kataral rinitni gipertrofik rinitdan farqlash** uchun dekonjestiv test o'tkaziladi, bunda burun shilliq pardasiga 0,1% adrenalin gidroxlorid (galazolin) surtiladi. Surunkali kataral rinitni davolashda bemorni chiniqtirish, jismoniy mashqlarga jalb etish, burun

bo'shlig'iga 4-5 tomchidan 2% kollargol (yoki protargol) tomizish muhim ahamiyatga ega.

Davolash 10 kun davom etadi. Shuningdek, burun bo'shlig'iga "Nazoneks" va "Avamis" aerozollarini kuniga 1-2 marta purkash tavsiya etiladi. Bir vaqtning o'zida bemorga tubus-kvars, UVCH, mikroto'lqinli terapiya, ultraton, kalsiy xlorid, dimedrol, novakain bilan elektroforez, naftizin va gidrokortizon bilan ingalatsiya muolajalari buyuriladi. Oyoqlarini issiq vannada ushslash, qorinchalariga xantal quyish kabi chora-tadbirlar ham o'tkaziladi.

**Tadqiqot maqsadi:** Surunkali (xronik) rinit kasalligini davolash samaradorligini takomillashtirish.

**Materiallar va usullar:** Glitserin, vinilin balsami, Aekol, Aevit kabi moddalar burun shilliq qavatiga surtilganda himoya pylonka hosil qilishga yordam beradi va shilliq qavatining zararlanmasligini oldini oladi. Surunkali rinitda epiteliy quruqligini davolashda **Dekspantenol** samaradorligi klinik jihatdan isbotlangan.

Ushbu tadqiqotda 76 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlarning yoshi, jinsi, kasallikning davomiyligi va shakli hisobga olindi. Tadqiqotning maqsadi surunkali rinitning zamonaviy davolash usullarini baholash va ularning samaradorligini aniqlash edi. Bemorlar ikki guruhga bo'lingan: birinchi guruhda zamonaviy davolash usullarini qo'llagan bemorlar, ikkinchi guruhda esa an'anaviy davolash metodlariga murojaat qilgan bemorlar joylashgan. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- O'rganilayotgan bemorlar: Tadqiqot davomida 76 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlarning yoshi 18 yoshdan 65 yoshgachani tashkil etdi. Bemorlar surunkali rinitning turli shakllari bilan tashxislangan va davolanishni boshlashdan oldin klinik tekshiruvdan o'tkazilgan.
- Guruhlar va davolash usullari: Bemorlar tasodifiy ravishda ikkita guruhga ajratildi. Birinchi guruhda zamonaviy preparatlar, aerozollar, mikroto'lqinli terapiya va fizioterapiya usullari qo'llanilgan, ikkinchi guruhda esa faqat an'anaviy davolash usullari, masalan, burun tomchilar, issiq vannalar va xalq tabobati usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqot metodlari:**

- Klinik kuzatuvlari: Bemorlar klinik ko'rikdan o'tkazilib, yallig'lanish jarayoni va uning og'irligi baholandi.

Analizlar va testlar: Yallig‘lanish belgilari, burun oqishi va boshqa simptomlar bo‘yicha laborator tekshiruvlar o’tkazildi. Shuningdek, bemorlar tomonidan his qilinadigan noqulayliklar va davolash samaradorligi testlar asosida baholandi.

○ Grafiklar va tahlillar: Har bir guruh bo‘yicha davolashning samaradorligi, bemorlarning simptomlarining kamayishi, davolash davomiyligi va davolashning umumiy samaradorligi bo‘yicha grafiklar va tahlillar taqdim etildi.

**Natijalar va Tahlil:** Bemorlar davolashdan keyin uchta asosiy parametr bo‘yicha baholandi:

1. Rinoreya (burun oqishi): Bemorlar davolashdan oldin va keyin rinoreya darajasida o‘zgarishlar kuzatildi. Zamonaviy davolash usullari qo‘llangan guruhda rinoreya darjasasi 45% ga kamaygan, an’anaviy usullarni qo‘llagan guruhda esa bu ko‘rsatkich faqat 25% ga kamaygan.

2. Nafas olish osonligi: Burun orqali nafas olishning osonlashishi ham har ikkala guruhda kuzatildi. Zamonaviy davolashni qo‘llagan bemorlarda nafas olish osonligi 50% ga oshgan, an’anaviy davolashda esa bu ko‘rsatkich 30% ga oshgan.

3. Yallig‘lanish darjasasi (sifatli o‘zgarishlar): Yallig‘lanish jarayonining kamayishi zamonaviy davolash usullari qo‘llangan guruhda 60% ga yaxshilangan, an’anaviy davolashda esa bu ko‘rsatkich 40% ni tashkil etdi.

Bemorlarning davolash samaradorligini yanada aniqroq ko‘rsatish uchun grafiklar va diagrammalar tayyorlandi. Quyidagi grafiklarda bemorlarning davolashdan oldin va keyin holati taqqoslangan:

1. Rinoreya darajasining kamayishi:

○ Zamonaviy davolash guruhida rinoreya darjasasi ancha pastga tushdi.  
○ An’anaviy davolash guruhida rinoreya darjasasi pastki chizig‘idan yuqori darajaga nisbatan kamroq yaxshilandi.

2. Nafas olishda osonlik:

○ Zamonaviy davolashda bemorlarning nafas olish osonligi sezilarli darajada oshdi.  
○ An’anaviy davolashda bemorlarning nafas olish yengilligi nisbatan kichik o‘zgarishlarni ko‘rsatdi.

3. Yallig‘lanish darajasi:

- Zamonaviy davolashda yallig‘lanish darajasi ancha kamaydi.
- An'anaviy davolashda yallig‘lanish darajasining kamayishi nisbatan kamroq edi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar va kuzatishlar quyidagi xulosalar bilan yakunlandi:

- Zamonaviy davolash usullari surunkali rinitni davolashda ancha samarali bo‘lib, burun oqishi, nafas olish va yallig‘lanishning kamayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.
- An'anaviy davolash usullari yordamida davolangan bemorlarda ham ma’lum darajada ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi, ammo zamonaviy davolashning samaradorligi ancha yuqori bo‘ldi.

**Xulosa:** Surunkali rinitni davolashda zamonaviy usullarni qo‘llash bemorlarga ko‘proq foyda keltiradi, shuningdek, bu usullarni qo‘llash davolash samaradorligini yanada oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy davolash usullari bemorlarning holatini sezilarli darajada yaxshilaydi, shuningdek, ularning umumiyligi sog‘lig‘ini tiklashda muhim rol o‘ynaydi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Burkhanov U.M., Khushvakova N.D. “Surunkali rinosinusit bilan kasallangan bemorlarni endoskopik operatsiyadan keyingi davrda antimikrob neytrofil peptidlarni o’rganish.” - 2020. Tashkent.
2. S.A. Xasanov, H.H. Vohidov, “Quloq, tomoq, burun kasalliklari.” - 2012.
3. M.S. Yusupova, G.Y. Nazarova, S.S. Shaimova, “Quloq, tomoq, burun kasalliklari.” - 2017.
4. Kenjayev Y.M., Berdieva S.A., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti. "Yurak bo’lmacha va qorinchalari giperstrofiyasining elektrokardiografiya belgilari o‘zgarishlarini tahlili."
5. Mamatqulovich K. Y. Me’dal osti bezi o ‘tkir va surunkali pankreatit kasalliklarini gistomorfologik tahlili //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 49-53.

6. Mamatqulovich K. Y. Glomerulonefrit kasalligida klinik labarator tahlillarning o'rni va samaradorligi //American journal of applied medical SCIENCE. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 112-120.
7. Mamatqulovich K. Y., Ismatulloevich X. I., Xabibullo o'g'li C. S. Ko'kyo'tal kasalligi va uni oldini olish chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 4. – S. 18-21.
8. Mamatqulovich K. Y., Fayzullayevna R. S. Husnbuzarlar etiologiyasi, klinikasi va davolash chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 126-130.
9. Kenjayev Y. "Bio eko texno" ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxonasi xodimlarining salomatligi //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 2. – S. 172-176.